



Murodov Nodirbek Oybek o'g'li,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

e-mail: nodirbekk98@bk.ru

PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ADABIYOTLARDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA SIYOSIY TARBIYANING SHAKLLANISH TENDENSIYALARI

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.455>

Annotatsiya. Maqolada psixologik-pedagogik adabiyotlarda milliy qadriyatlar asosida siyosiy tarbiyaning shakllanish tendensiyalari nazariy va tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda mumtoz va zamonaviy pedagogika, psixologiya sohalaridagi ilmiy yondashuvlar, nazariyalar va konsepsiyalar ko'rib chiqiladi. Maqolada siyosiy tarbiya nazariyasining rivojlanish bosqichlari, milliy qadriyatlar va siyosiy sotsializatsiya o'rtasidagi bog'liqlik, turli pedagogik maktablarning siyosiy tarbiyaga qarashi, zamonaviy tendensiyalar: kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivizm, kritik pedagogika, multikulturalizm, raqamli tarbiya kabilar batafsil ochib beriladi. O'zbek va xorijiy ilmiy manbalardan kelib chiqqan holda milliy qadriyatlar asosida siyosiy tarbiyaning nazariy asoslari, pedagogik prinsiplari va zamonaviy psixologik-pedagogik fandagi dolzarb tendensiyalar tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: psixologik-pedagogik adabiyotlar, milliy qadriyatlar, siyosiy tarbiya, shakllanish tendensiyalari, pedagogik nazariyalar, siyosiy sotsializatsiya, fuqarolik tarbiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivizm, kritik pedagogika, milliy tarbiya, demokratik tarbiya, multikulturalizm, psixologik mexanizmlar.

Аннотация. В статье теоретически и исторически анализируются тенденции формирования политического воспитания на основе национальных ценностей, представленных в психолого-педагогической литературе. В исследовании рассматриваются научные подходы, теории и концепции классической и современной педагогики и психологии. В статье подробно раскрываются этапы развития теории политического воспитания, взаимосвязь между национальными ценностями и политической социализацией, взгляды различных педагогических школ на политическое воспитание, а также современные тенденции — компетентностный подход, конструктивизм, критическая педагогика, мультикультурализм и цифровое воспитание. На основе узбекских и зарубежных научных источников анализируются теоретические основы политического воспитания, его педагогические принципы и актуальные тенденции в современной психолого-педагогической науке.

Ключевые слова: психолого-педагогическая литература, национальные ценности, политическое воспитание, тенденции формирования, педагогические теории, политическая социализация, гражданское воспитание, компетентностный подход, конструктивизм, критическая педагогика, национальное воспитание, демократическое воспитание, мультикультурализм, психологические механизмы.

Annotation. The article provides a theoretical and historical analysis of the tendencies in the formation of political education based on national values as reflected in psychological and pedagogical literature. The study examines scientific approaches, theories, and concepts from classical and modern pedagogy and psychology. The article elaborates on the stages of development of political education theory, the interrelation between national values and political socialization, perspectives of various pedagogical schools on political education, as well as contemporary trends — the competency-based approach, constructivism, critical pedagogy, multiculturalism, and digital education. Drawing on Uzbek and international scholarly sources, the article analyzes the theoretical foundations, pedagogical principles, and current trends in modern psychological and pedagogical science concerning political education based on national values.

Keywords: psychological and pedagogical literature, national values, political education, formation tendencies, pedagogical theories, political socialization, civic education, competency-based approach, constructivism, critical pedagogy, national education, democratic education, multiculturalism, psychological mechanisms.

Kirish. Siyosiy tarbiya nazariyasi va amaliyoti ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, u pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik va falsafa fanlarining kesishmasida rivojlanib kelgan. Har bir davr, har bir jamiyat o'z qadriyatlari, maqsadlari va shartlariga mos ravishda siyosiy tarbiya konsepsiyalarini ishlab chiqqan. Milliy qadriyatlar asosidagi siyosiy tarbiya – nisbatan yangi, ammo juda muhim yo'nalish bo'lib, u universal pedagogik tamoyillar va milliy o'ziga xoslikni uyg'unlashtirish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda siyosiy tarbiya masalalari uzoq vaqt davomida turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqilgan.

XXI asr globallashuv va axborotlashuv davri sifatida jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, ta'lim-tarbiya tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonlar yoshlar ongida turli qadriyatlar to'qnashuvini, milliy o'zlikni anglashda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois bugungi kunda yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar va siyosiy madaniyatni uyg'unlashtirib, ularning ongida mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish dolzarb vazifaga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Har bir inson qadri-qadrini topgan, har bir xalq vakili o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarayotgan yangi O'zbekistonni barpo etish" g'oyasi yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni asos qilib olishni talab etadi. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" Qonuni, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" (2022–2026-yillar) kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlar yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim muassasalarida siyosiy tarbiya jarayoni ko'pincha nazariy-ma'rifiy xarakterda bo'lib, milliy qadriyatlar bilan yetarlicha bog'lanmagan holda amalga oshirilmoqda. Pedagogik adabiyotlarda esa milliy qadriyatlar asosida siyosiy tarbiyaning shakllanish tendensiyalari va tarixiy rivojlanishi yetarli darajada o'rganilmagan. Bu esa nazariya va amaliyot o'rtasida ma'lum tafovutni yuzaga keltirmoqda. Siyosiy tarbiya muammosi pedagogika fanida turli davrlarda keng tadqiq etilgan. Jahon pedagogikasida J.Dewey (AQSh) demokratik tarbiya nazariyasida fuqarolik tarbiyasini, J.Piaget (Shveysariya) bolalarda axloqiy va fuqarolik tushunchalarining shakllanish

bosqichlarini, L.Kohlberg (AQSh) axloqiy-siyosiy ongning rivojlanish darajalarini ilmiy asoslagan. Biroq G'arb pedagogikasida bu masala asosan liberalizm va individualizmga asoslangan holda yoritilgan. Antik davr mutafakkirlari Aflotun va Arastu yoshlarni ideal fuqaro qilib tarbiyalash masalalarini muhokama qilganlar. Yangi davr pedagoglari – Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo va I.Pestalotstsilar tarbiya, fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasi nazariyasiga katta hissa qo'shgan. XX asr pedagogika va psixologiyasida J.Dewey, L.S.Vigotskiy, J.Piaget, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy siyosiy sotsializatsiya, fuqarolik tarbiyasi, shaxs shakllanishi masalalarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar¹. O'zbekiston pedagogikasida ham milliy tarbiya, vatanparvarlik, milliy g'urur masalalari har doim muhim o'rin tutgan. Alisher Navoiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib kabi sharq mutafakkirlari o'z asarlarida yetuk, bilimli, axloqiy va vatanparvar shaxsni tarbiyalash masalalarini ko'targanlar.

Maqsad va uni asoslash. Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston yoshlarida milliy qadriyatlar asosida siyosiy tarbiyani shakllantirish jarayonini takomillashtirish bo'yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Bugungi kunda globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va fuqarolik tuyg'ularini shakllantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Siyosiy tarbiya masalasi pedagogika fanida keng o'rganib kelingan bo'lsa-da, milliy qadriyatlar orqali siyosiy tarbiyaning shakllanish tendensiyalarini tahlil qilish yetarli darajada tadqiq etilmagan. Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, siyosiy tarbiya muammosi turli davrlarda A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, I.S.Marenko kabi olimlar tomonidan kollektiv tarbiya, axloqiy-ma'naviy tarbiya kontekstida o'rganilgan. Mustaqillik yillarida esa bu masala milliy istiqloq g'oyalari, milliy qadriyatlar asosida qayta ko'rib chiqildi (Q.Nazirov, A.Munavvarov, M.Kuronov va boshqalar). Biroq mavjud tadqiqotlarda quyidagi xususiyatlar yetarlicha yoritilmagan:

- milliy qadriyatlar va siyosiy tarbiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mexanizmlari;
- psixologik-pedagogik adabiyotlarda bu muammoning shakllanish bosqichlari va tendensiyalari;
- zamonaviy sharoitda milliy qadriyatlar asosida siyosiy tarbiyani amalga oshirishning o'ziga xos pedagogik texnologiyalari.

¹ Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. Macmillan, 1916. – 434 p.

Tanlangan muammoning o'ziga xos xususiyati shundaki, u siyosiy tarbiya nazariyasini milliy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'lagan holda tahlil qiladi va bu ikki tushunchaning pedagogik sintezini amalga oshirishga e'tibor qaratadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Siyosiy tarbiya masalalari birinchi marta antik davr mutafakkirlari tomonidan tizimli shaklda qo'yilgan. Aflotun "Davlat" asarida ideal davlat va ideal fuqaroni tarbiyalash konsepsiyasini ishlab chiqqan. U ta'lim va tarbiyani davlatning asosiy vazifalaridan biri deb hisoblagan va yoshlarni adolat, jasorat, donolik kabi fazilatlariga ega qilish zarurligini ta'kidlagan. Arastu "Siyosat" asarida fuqarolarni tarbiyalash davlatning eng muhim vazifasi ekanini yozgan va ta'lim tizimi davlat tomonidan boshqarilishi kerakligini ta'kidlagan. Sharq falsafasida ham siyosiy va axloqiy tarbiya masalalari muhim o'rin tutgan. Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida ideal jamiyat va uni barpo etish uchun zarur bo'lgan tarbiya tizimini tasvirlagan. Ibn Sino "Tarbiya haqida" risolasida jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiyaning uyg'unligini, yoshlarni hayotga, jamiyatga, o'z xalqiga xizmat qilishga tayyorlash zarurligini ko'rsatib o'tgan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari yoshlarni davlat xizmati, rahbarlik, adolat, donolik kabi fazilatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha boy pedagogik fikrlarni o'z ichiga oladi.

Yangi davr pedagogikasida fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasi masalalari yangi mazmun kasb etdi. Komenskiy "Buyuk didaktika"da barcha bolalarni o'qitish va tarbiyalash g'oyasini ilgari surdi va milliy tilida o'qitish zarurligini ta'kidladi. Russo "Emil yoki tarbiya haqida" asarida tabiiy tarbiya nazariyasini ishlab chiqdi va yoshlarni fuqaro sifatida tarbiyalash zarurligini tan oldi². XX asrda sovet pedagogikasida o'ziga xos siyosiy tarbiya konsepsiyasi shakllandi. Makarenko jamiyat orqali shaxsni tarbiyalash nazariyasini ishlab chiqdi. Uning asarlarida kollektiv, mehnat tarbiyasi, intizom, mas'uliyat, fuqarolik ongi kabi masalalar yoritilgan. Suxomlinskiy insonparvar pedagogika konsepsiyasini yaratib, vatanparvarlik, mehnatsevarlik masalalarini hissiy va ma'naviy tarbiya orqali hal etishni taklif qildi. Piaget kognitiv rivojlanish nazariyasida bolalar fikrlash qobiliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishini ko'rsatib berdi. Uning nazariyasi siyosiy sotsiali-

² Пестолоцци И. Г. Избранные педагогические сочинения: В 2-х т. – Москва: Педагогика, 1981. Т. 1. – 334 с.

zatsiya tadqiqotlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Vigotskiy madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida shaxsning rivojlanishida ijtimoiy-madaniy muhitning, tilning rolini ta'kidladi. Bu yondashuv siyosiy tarbiyaga ham tegishli – yoshlar siyosiy qadriyatlarni ijtimoiy muhitda, kattalar yordami bilan o'zlashtirishadi³. Kohlberg axloqiy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqdi va uni siyosiy qarashlarning shakllanishiga ham tatbiq etdi. Uning ta'kidlashicha, odamlar axloqiy va siyosiy masalalarda fikrlash qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishadi. Bu nazariya siyosiy tarbiyada tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, prinsipial pozitsiya shakllantirishning ahamiyatini ko'rsatadi. Tajfel va Turner ijtimoiy identiklik nazariyasini yaratdilar. Unga ko'ra, odamlar o'zlarini ma'lum ijtimoiy guruhlariga tegishli his qilish orqali o'z identikligini shakllantiradilar. Bu nazariya milliy identiklik va siyosiy ongning shakllanishini tushunish uchun muhim. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi (Bandura) shuni ko'rsatadiki, yoshlar siyosiy xulq-atvor va qadriyatlarni ota-onalar, o'qituvchilar, media shaxslari kabi modellardan o'rganadilar⁴. Schwartz qadriyatlar nazariyasida universal inson qadriyatlarini aniqladi va ularni bir necha guruhga ajratdi. Unga ko'ra, turli madaniyatlar va shaxslarda turli qadriyatlar ustuvor bo'lishi mumkin. Siyosiy tarbiyada bu qadriyat yo'nalishlarini hisobga olish, milliy va universal qadriyatlarni muvozanatlash muhimdir.

Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'limning asosiy paradigmalaridan biriga aylandi. Bu yondashuvda ta'limning maqsadi nafaqat bilimlar berish, balki real hayotda qo'llay oladigan kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Siyosiy tarbiya kontekstida fuqarolik kompetensiyalari tushunchasi paydo bo'ldi, bu yoshlarning demokratik jamiyatda faol, mas'uliyatli va samarali ishtirok etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlar majmuyidir. Fuqarolik kompetensiyalari siyosiy bilim, tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlik, mas'uliyat va fuqarolik faolligini o'z ichiga oladi.

Konstruktivizm zamonaviy pedagogikaning muhim nazariy asosi bo'lib, siyosiy tarbiya kontekstida konstruktivizm yoshlarning o'z siyosiy qarash va identikligini faol ravishda, o'z tajribasi, tahlil va mulohazalari asosida shakllantirishini ta'kidlaydi.

³ Выготский Л. С. Педагогическая психология. Москва: Педагогика-Пресс, 1996. – 536 с.

⁴ Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.

O'qituvchi tayyor xulosalar yuklash o'rniga yoshlarga fikrlash, muhokama qilish, o'z xulosalariga kelish imkoniyatini berishi kerak.

Kritik pedagogika (Freire, Giroux) ta'limni ijtimoiy o'zgarish, adolat va ozodlik vositasi sifatida ko'radi. Siyosiy tarbiya kontekstida kritik pedagogika yoshlarni mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarni tanqidiy tahlil qilish, adolatsizliklarni aniqlash, o'z huquqlarini himoya qilish ko'nikmalariga ega qilishni ta'kidlaydi. Bu yondashuv yoshlarning passiv qabul qiluvchi emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarning faol subyekti bo'lishini maqsad qiladi⁵. Multikulturalizm turli madaniyatlar, etnik guruhlar o'rtasida tenglik, hurmat va dialogni ta'minlash g'oyasiga asoslanadi. Siyosiy tarbiya kontekstida multikulturalizm yoshlarda turli madaniyatlar, qadriyatlar, qarashlar, hayot tarzlariga hurmat, tolerantlikni anglatadi. Bu yondashuv milliy identiklikni inkor etmaydi, balki uni keng kontekstda rivojlantirishni ta'kidlaydi.

Raqamli pedagogika va media savodxonligi zamonaviy yoshlar "raqamli avlod" bo'lgani sababli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mediasavodxonlik – zamonaviy axborot muhitida yo'l topish, ma'lumotlarni tanqidiy baholash, ishonchli manbalarni ajratish ko'nikmalari. Siyosiy tarbiya kontekstida yoshlarni "fake news", manipulyatsiya va propagandan himoya qilish uchun ularni tanqidiy mediasavodxonlikka o'rgatish zarurdir.

O'zbek pedagogikasida milliy tarbiya masalalari har doim muhim o'rin tutgan. Mustaqillikka erishilgandan so'ng, milliy g'oya, milliy qadriyatlar, milliy identiklik masalalari yangi ahamiyat kasb etdi. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida milliy ma'naviyat, an'anaviy qadriyatlar, milliy g'urur va identiklikni mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy

qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdi. O'zbek milliy tarbiya konsepsiyasining asosiy tamoyillari milliy o'ziga xoslik va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi, tarixiy xotira va zamonaviylik sintezi, insonparvarlik va axloq, oila va jamoa qadriyatlari, mehnat va ijod, vatanparvarlik va milliy g'ururdan iborat. Shavkat Mirziyoyev davlatimiz rahbari sifatida "Yoshlar – bizning kelajagimiz" tamoyili asosida yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirmoqda.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytganda, psixologik-pedagogik adabiyotlarda milliy qadriyatlar asosida siyosiy tarbiyaning shakllanishi bir necha muhim zamonaviy tendensiyalarni ko'rsatmoqda. Milliy qadriyatlar asosida siyosiy tarbiyaning psixologik-pedagogik adabiyotlardagi shakllanish tendensiyalari bo'yicha olib borilgan tadqiqot muhim ilmiy-nazariy va amaliy xulosalarga olib keldi. Tadqiqot pedagogika nazariyasini boyitishga hissa qo'shdi. Tarixiy-pedagogik tahlil asosida siyosiy tarbiya nazariyasining uchta asosiy rivojlanish tendensiyasi aniqlandi: mafkuraviy yondashuvdan milliy-ma'naviy yondashuvga o'tish, avtoritar usullardan demokratik metodlarga transformatsiya, an'anaviy va innovatsion texnologiyalarning sintezi. Ishlab chiqilgan uch komponentli integratsiyalashgan model – axloqiy-ma'naviy, milliy-madaniy va fuqarolik qadriyatlarining o'zaro ta'siri yoshlarda mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asosini tashkil etdi. Pedagogika fanida "milliy qadriyatlar asosida siyosiy tarbiya" mustaqil yo'nalishi yaratildi. Ushbu maqola milliy qadriyatlar asosida siyosiy tarbiya masalasi nafaqat nazariy, balki dolzarb amaliy ahamiyatga ega ekanini isbotladi va ta'lim-tarbiya amaliyotida keng qo'llanilishi uchun mustahkam ilmiy asos yaratdi.

⁵ Freire P. Pedagogy of the Oppressed. New York: Continuum, 2000. – 192 p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. Macmillan, 1916. – 434 p.
2. Каримов И. А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
3. Пестолоцци И. Г. Избранные педагогические сочинения: В 2-х т. – Москва: Педагогика, 1981. Т. 1. – 334 с.
4. Выготский Л. С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика-Пресс, 1996. – 536 с.
5. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
6. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. New York: Continuum, 2000. – 192 p.